



## MOLIYAVIY RESURSLAR TAHLILI YORDAMIDA KORXONA FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

**G'olibjon Quvvatov,**

*PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti (DSc)*

*Toshkent, O'zbekiston. Email:golibjonkuvvatov@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-4694-787X*

### MAIN DIRECTIONS OF EFFICIENT MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE THROUGH THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESOURCES

**Golibjon Kuvvatov,**

*PhD, doctoral student of Tashkent State University of Economics (DSc)*

*Tashkent, Uzbekistan. Email:golibjonkuvvatov@gmail.com*

*ORCID: 0009-0008-4694-787X*

#### **JELClassification:M1,M4,M49**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonaning moliyaviy resurslari, ularning turlari va xususiyatlari, ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va moliyaviy resurslar tahlilining jahon tajribasidan mamlakatimizda keng foydalanish bo'yicha ayrim ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, korxonalarning moliyaviy resurslari va iqtisodiy holatini tahlil qilishda xalqaro tajribalardan milliy iqtisodiyotimizda mos jihatlarini keng qo'llash tajribalari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot olib borish jarayonida xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning nazariy asoslari va amaliy uslubiyotlari, tahlilning turli usullari, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining gorizontal va vertikal tahlil usullaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari keng qamrovda yoritib berilgan. Shu bilan birga, korxonaning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish biz uning moliyaviy holati, uning kelgusi davrlar uchun uning qarzdorlik holatida moliyaviy resurslarning likvidliligi, to'lovga qobiliyati va faoliyatning rentabelligini doimiy tahlil qilib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

likvidlilik, moliyaviy resurs, aktiv, kapital, majburiyat.

**Abstract:** This article presents scientific proposals and recommendations on the widespread use of financial resources of the enterprise in our country, their types and characteristics, features of their use and world experience in analyzing financial resources. Also, from international experience in the analysis of financial resources and the economic condition of enterprises, the experience of wide application of relevant aspects in our national economy is shown. In the course of the research, the theoretical foundations and practical methods of analyzing economic activity, various methods of analysis, and features of using methods of horizontal and vertical analysis of financial reporting indicators are widely covered. At the same time, the analysis of the company's financial statements expands the possibilities by which we can conduct a continuous analysis of its financial condition, liquidity of financial resources, solvency and profitability of activities in the state of its debt for the coming periods.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy faoliyat, moliyaviy resurslar, to'lov qobiliyati,

**Key words.** Financial activity, financial resources, solvency, liquidity, ability to permanent financing, financial resources, assets, capital, liabilities.

**Kirish.** Korxonalarni to‘g‘ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab qiladi. Korxona moliyaviy xizmatining vazifalari moliyaviy hujjatlar aylanishini, o‘zaro hisob - kitoblarni, mablag‘larni jalg qilish va joylashtirishni, moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini nazorat qilishni, moliyaviy oqimlarni optimallashtirishni, biznes rejani tuzishni, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish va prognoz qilishni o‘z ichiga oladi. Biroq, bu funksiyalarni bajarish uchun moliyaviy xizmat korxona boshqa boshqaruva xizmatlaridan (xarid, ishlab chiqarish, sotish) ma'lumotga muhtoj bo‘ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini bilan birga moliyaviy faoliyatini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois korxonalarning moliyaviy faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi moliyaviy resurslarni alohida tahlil qilish zaruriyati ortib bormoqda. Bugungi kunda bankrotlikka yuz tutmaslik va yashab qolishga harakat mavjud moliyaviy resurslarni boshqarishni yaxshi bilishni, kapital tarkibini va tashkil topish manbalarini shakllantirishda moliyaviy mustaqillikni (o‘z va qarz mablag‘lari ulushini) to‘g‘ri nisbatlashni, eng muhimi samarali va natijali ishlab chiqarishni, tijorat va moliyaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yishni talab etadi [1].

Dunyo olimlarining kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, korporativ moliyalashtirishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish ERP (Enterprise Resource Planing) va MRP II (Manufacturing Resources Planning) tizimlari yordamida ushbu vazifalarni samarali bajarish mumkin. Bu tizimlar

korxona faoliyatining barcha sohalarini qamrab oluvchi yechimlar majmuini nazarda tutadi. Har bir sohaning o‘ziga xos axborot kompleksi bor. Ularning kiritilishida birlamchi hujjatlar qabul qilinadi, chiqishlar esa axborot modeli talablariga muvofiq qayta ishlanadi va keyingi ishlarga tayyorланади va korxonaning boshqa ko‘rsatkichlari bilan umumlashtiriladi. Korxonalarning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash korxona samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, korxonaning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan maqsad uning hisobot yildagi faoliyati natijalarini baholash, korxona faoliyatining haqiqiy natijalarini rejashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish; shuningdek, kompaniyaning iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini baholash. Moliyaviy faoliyat tahlili moliyaviy hujjatlar asosida amalga oshiriladi: buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot va boshqalar.

**Material va metod.** Kompaniyaning biznes faoliyatini tahlil qilish jalg qilingan mablag‘lar, biznes natijasi va takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy funksiyalarni kuzatish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy holatini va u bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Moliyaviy tahlilning asosiy qismi buxgalteriya balansi va daromadlar to‘g‘risidagi hisobotning qiymatini solishtirish orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy tahlil - bu kompaniyaning joriy moliyaviy holatini baholash va rivojlanishning potentsial tezligini baholash, shuningdek, kelajakdagi moliyaviy holatni bashorat qilish, mavjud mablag‘ manbalarini va ularni safarbar qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun moliyaviy ma'lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy tahlilning predmeti, birinchi navbatda, kompaniya moliyaviy hisobotlari, ya'ni:

- balanslar varaqasi,
- daromad jadvali,
- pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot,
- o‘z kapitalidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot va
- moliyaviy hisobotga izohlar.

Moliyaviy tahlil predmeti yillik hisobotning xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy bo‘lmagan, ammo to‘g‘ri biznes va investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun muhimroq bo‘lgan barcha boshqa segmentlari bo‘lishi mumkin, masalan:

- aksiyadorlarga yo‘llangan xat (aksiyadorga xat),
- qo‘sishmcha muhokamalar va boshqaru

• Boshqaruv muhokamasi va tahlili.

Kompaniyada moliyaviy tizimni muvaffaqiyatli boshqarish uchun moliyaviy biznesni tahlil qilish faolligi ham paydo bo‘ladi. Moliyaviy tahlil kompaniyaning kompleks biznes tahlilining ajralmas qismidir. Moliyaviy tahlil kompaniyaning moliyaviy funksiyalarining to‘liq ta’sirini tahlil qilishi kerak:

- umumiy tamoyillar (hosildorlik, tejamkorlik, rentabellik),
- maxsus tamoyillar (likvidlik, barqarorlik, xavfsizlik),
- ichki va tashqi omillarning harakatlari;
- moliyalashtirish bo‘yicha qarorlar va boshqalar.

Daromadlar to‘g‘risidagi hisobot / balans moliyaviy siyosatning asosi sifatida kompaniyaning moliyaviy tahlilida asosiy omil hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, buxgalteriya balansi korxona faoliyatini kompleks tahlil qilishning asosiy usullari va vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Moliyaviy tahlil turlari haqida gap ketganda, moliyaviy tahlilni quyidagilarga ajaratish mumkin:

• mablag‘lar va mablag‘lar manbalarini tahlil qilish;

- likvidlik tahlili,
- xarajatlar va daromadlarni tahlil qilish
- kompaniyaning biznes faoliyatini tahlil qilish.

Aktivlar va mablag‘lar manbalarini tahlil qilish, aslida, balans tahlili bo‘lib, bu yerda balansning statik va dinamik tahlili haqida gapirish mumkin.

Buxgalteriya balansini statik tahlil qilish - bu faqat bitta balansning tahlili bo‘lib, uning asosida aktivlar balansi va tuzilishi va ularning manbalari tasviri olinadi. Buxgalteriya balansini dinamik tahlil qilish deganda bir nechta shunday balanslarni tahlil qilish tushuniladi va u bitta kompaniyada ma‘lum vaqt ichida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni ko‘rish imkonini beradi.

Moliyaviy tahlilning yo‘naltirilganligi nuqtai nazaridan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

• gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘tgan davr bilan taqqoslanadi, ya’ni bu ko‘rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

• vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o‘rganiladi. Masalan, korxona mablag‘larining yoki ularni qoplovchi manbalarning hisobot davridagi tarkibi va uni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi ifodalanadi;

• nisbiy ko‘rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqa o‘rganiladi. Masalan korxona mablag‘larining va ularning manbalari o‘rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o‘rtasidagi aloqa ifodalanadi;

• taqqoslash tahlilida korxona bo‘yicha moliyaviy holat uning alohida kichik bo‘limlari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy

holati bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil – bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir[5].

**Natijalar.** Bugungi kunda, korxona va tashkilotlarga berilgan imkoniyatlar, ularning o'z maqsadlariga erishishdagi har qanday sun'iy to'siqlarni bartaraf etilishi, erkinlik va mustaqillikni qaror topishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korxona va tashkilotlar xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishda muhim dastak hisoblangan iqtisodiy tahlilning roli ham oshib bormoqda. Buni nimalarda ko'rish mumkin? Bugungi iqtisodiyot, rejali iqtisodiyot davridan farqli ravishda tahlilchilar oldiga bir qadar murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Ta'minot jarayonidan tortib korxona moliyaviy holatiga qadar bo'lgan kompleks jarayon qat'iy rejalashtirilgan bir sharoitda tahlilni mazmunini faqat uning o'zgarishlarini va o'zgarish sabablarini o'rganishdangina iborat deyish mumkin[4]<sup>1</sup>.

Kompaniyani moliyalashtirishdan avval uning kelgusi davrlar uchun moliyaviy holatini tahlil qilish zaruriyati tufayli, ushu tahlildan asosiy manfaat nimalardan iborat ekanligini bilib olish zarur. Moliyaviy tahlil subyektlariga tahlilchilarning keng qamrovli guruhi kiritiladi. Ularni shartli ravishda ichki va tashqi subyektlarga bo'lish mumkin. Ichki tahlil subyektlariga faqat shu firma, kompaniya xodimlari kirsa, tashqi subyektlarga ta'sischilar, soliq organlari xodimlari, auditorlar, yuqori tashkilot va vazirliklar, xaridor va buyurtmachilar, mol yetkazib beruvchilar, sug'urta agentliklari, reklama agentlari, bank xodimlari va boshqa shaxslar kirishi mumkin. Tahlil subyektlarining manfaatlari albatta bir biridan keskin farq qiladi. Masalan; ta'sischilar ko'proq firma va kompaniyalarining foydasini bilan, soliq idoralari ko'proq "daromad-xarajat-natija"lar aloqadorligi tahlilidan, kredit inspektorlari va bank xodimlari; firma va kompaniyalarining kreditga layoqatligi va moliyaviy barqarorligi bilan, mol yetkazib beruvchilar; firma va kompaniyaning to'lov layoqatini o'rganishdan, tahlil etishdan manfaatdorlar. Moliyaviy tahlil va ularning manfaatlar mushtarakligini quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqish mumkin. (1-jadval).

### 1 – jadval.

#### Moliyaviy tahlil subyektlari va ularning manfaatlari<sup>2</sup>.

T/r	Moliyaviy tahlil subyektlari	Subyektlar manfaatlari
1	2	3
1.	Korxona xodimlari	Firma va kompaniyaning moliyaviy natijaviyligi va moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishdan
2.	Tasischilar	Firma, kompaniyaga qo'yilgan va qo'yiladigan mablag'larning foydaliligidan
3.	Auditorlar	E'lon qilinadigan hisobot shakllarini to'g'rilingini huquqiy tamoyillar asosida baholash va firma, kompaniyalar moliyaviy holatini yaxshilashni ichki imkoniyatlarini ko'rsatib berishdan, mulk egalari manfaatlarini himoya etishdan
4.	Yuqori tashkilot	Mavjud moddiy va moliyaviy resurslar harakatini va samaradorligini o'rganish
5.	Soliq idoralari	Majburiy to'lovlar, soliqlar va ajratmalarini undirish yuzasidan resurslar holati, harakatini va faoliyat natijaviyligini o'rganishdan

<sup>1</sup> Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o'quv qo'llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

<sup>2</sup> Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o'quv qo'llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

6.	Sug‘urta agentliklari	Firma, kompaniya mulkini turli tahlikalardan himoya qilish, saqlanishi yuzasidan ma’lumotlarni o‘rganishdan
7.	Mol yetkazib beruvchilar	Shartnomaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, tomonlarning o‘z majburiyatlarini bajarishi, to‘lov intizomiga rioya qilish, to‘lovga qobilyatlilik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganishdan
8.	Xaridor va buyurtmachilar	Ta’mindagi uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan firma va kompaniyalarining moliyaviy va iqtisodiy salohiyatning tayanchi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan

Korxonalar moliyaviy resurslardan foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Investitsiya siyosati har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiyotida muhim yo‘nalish hisoblanadi. Moliyaviy tahlilni amalga oshirishning tayyorgarlik bosqichi auditorlik xulosasi bilan tanishishdan boshlanadi va maqsad tahlilning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilishdir. Standart audit hisoboti - bu hisobotdagi ma'lum ma'lumotlarning ishonchliligi va ularning amaldagi me'yoriy hujjalarga muvofiqligi bo‘yicha auditor yoki auditorlik tashkilotining ijobjiy bahosini o‘z ichiga olgan qisqa hujjat. Nostandart yanada kengroq va qo‘sishma ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

II bosqich buxgalteriya hisobini dastlabki ko‘rib chiqish bosqichi bo‘lib, unda hisobot davridagi ish sharoitlarini baholash, asosiy ko‘rsatkichlarning tendentsiyalarini, shuningdek mult va findagi sifat o‘zgarishlarini aniqlashga qaratilgan. kompaniyaning pozitsiyasi. Iqtisodiy hisobot va hisob-kitob tahlili - bu xo‘jalik faoliyati natijalari va korxonaning moliyaviy holatini umumiy baholash. Moliyaviy tahlil quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi: iqtisodiy samara - faoliyat natijasini tavsiflovchi mutlaq ko‘rsatkich va iqtisodiy samaradorlik - bu samaraga erishish uchun sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan ta’sirni taqqoslaydigan tegishli ko‘rsatkich.

Moliyaviy natija moliyaviy daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq bo‘lib, ularni alohida tahlil qilish kerak. Moliyaviy tahlildan oldin umumiy tizim tahlili o‘tkazilishi kerak, morfologik tahlil usulidan foydalanish mumkin, bu muammo haqida oz miqdordagi ma'lumot mavjud bo‘lganda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Vaziyatni nazorat qilish va tashxislash va kompaniyaning rivojlanishini bashorat qilish uchun axborot tahlilini o‘tkazish mumkin.

“Moliyaviy tahlil ustun qismda bu nisbat tahlili bo‘lib, uning mohiyati balans moddalariga oddiy matematik formulalarda qarashdir. Ushbu moliyaviy toifalarni o‘zaro taqqoslashda, oqimlarni, ma'lum bir vaqt ichida erishilgan natijalarni (daromadlar to‘g‘risidagi hisobot toifasiga ko‘ra) va oqimlarni, balansni ifodalovchi moliyaviy toifalarni taqqoslashdan izchil natijalarga erishib bo‘lmasligiga e’tibor berish kerak. ma'lum bir kundagi pozitsiyalar. Moliyaviy tahlil bu muammoni bir necha ketma-ket muddatlarda birja pozitsiyalarini olish orqali ko‘proq yoki kamroq muvaffaqiyat bilan hal qiladi va shu bilan ularning soni va tizimliligiga qarab, ularni kamida taxmini oqimlarga aylantiradi, ular bilan to‘plangan natijalarni (oqimlarni) ifodalaydi. ma'lum vaqt oralig‘ida[6].

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
Revenue	51,585	53,494	55,749	100%	100%	100%	NA	4%	4%
COGS	27,697	28,429	29,200	54%	53%	52%	NA	3%	3%
Gross Profit	23,888	25,065	26,550	46%	47%	48%			
SG&A	5,877	6,006	6,144	11%	11%	11%	NA	2%	2%
Other	1,764	1,931	2,026	3%	4%	4%	NA	9%	5%
EBITDA	16,247	17,128	18,380	31%	32%	33%	NA	5%	7%
Depreciation	2,960	3,196	3,452	6%	6%	6%	NA	8%	8%
Earnings Before Interest and Taxes	13,287	13,932	14,928	26%	26%	27%	NA	5%	7%
Interest Expense	1,488	2,580	2,448	3%	5%	4%	NA	73%	(5%)
Earnings Before Tax	11,799	11,352	12,480	23%	21%	22%	NA	(4%)	10%
Tax	3,155	2,861	3,012	6%	5%	5%	NA	(9%)	5%
Net Income	8,644	8,491	9,468	17%	16%	17%	NA	(2%)	12%

**1-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontal va vertikal tahlil usullari<sup>3</sup>.**

Foya va zarar to‘g‘risidagi hisobot tahlilidan shuni ko‘rishimiz mumkinki Aksariyat tahlilchilar moliyaviy hisobot tahlilini daromadlar to‘g‘risidagi hisobotdan boshlaydilar. Tahlilning ikkita asosiy turi mavjud: vertikal tahlil va gorizontal tahlil.

Vertikal tahlil. Ushbu tahlil usuli yordamida biz daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni yuqoriga va pastga qaraymiz (shuning uchun, "vertikal" tahlil) har bir satrning daromad bilan qanday solishtirilishini foiz sifatida ko‘ramiz.

Misol uchun, quyida ko‘rsatilgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobotda bizda vertikal tahlilni tashkil etuvchi jami dollar miqdori va foizlar mavjud.

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
Revenue	51,585	53,494	55,749	100.0%	100.0%	100.0%
COGS	27,697	28,429	29,200	53.7%	53.1%	52.4%
Gross Profit	23,888	25,065	26,550	46.3%	46.9%	47.6%
SG&A	5,877	6,006	6,144	11.4%	11.2%	11.0%
Other	1,764	1,931	2,026	3.4%	3.6%	3.6%
EBITDA	16,247	17,128	18,380	31.5%	32.0%	33.0%
Depreciation	2,960	3,196	3,452	5.7%	6.0%	6.2%
Earnings Before Interest and Taxes	13,287	13,932	14,928	25.8%	26.0%	26.8%
Interest Expense	1,488	2,580	2,448	2.9%	4.8%	4.4%
Earnings Before Tax	11,799	11,352	12,480	22.9%	21.2%	22.4%
Tax	3,155	2,861	3,012	6.1%	5.3%	5.4%
Net Income	8,644	8,491	9,468	16.8%	15.9%	17.0%

**2-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontal tahlili<sup>4</sup>.**

Yuqoridagi misolda ko‘rib turganingizdek, biz har bir qatorni daromadning ulushi sifatida ko‘rib, daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni to‘liq tahlil qilamiz.

Biz ko‘rib chiqadigan asosiy ko‘rsatkichlar:

Sotilgan mahsulot tannarxi (SOGS) daromadning foizi sifatida

Yalpi foya daromadning foizi sifatida

<sup>3</sup> Vučičević D., “Theoretical aspects and basic settings of financial analysis”, School of Business 2/2012,(2012),p.2.

<sup>4</sup> Vučičević D., “Theoretical aspects and basic settings of financial analysis”, School of Business 2/2012,(2012),p.2.

Daromadning foizi sifatida amortizatsiya

Umumiy va ma'muriy (SG&A) ni daromadning foizi sifatida sotish

Daromadning foizi sifatida foiz

Soliqdan oldingi daromad (EBT) daromadning foizi sifatida

Soliq daromadning foizi sifatida

Daromadning foizi sifatida sof daromad

Gorizontal tahlil

Quyidagi misol uchun, 3-yilda daromad \$55,749, 2-yilda esa \$53,494 edi. Daromadning yillik o'zgarishi \$55,749 / \$53,494 minus birga teng, bu 4,2% ga teng.

(\$ in millions)	Year 1	Year 2	Year 3	Year 1	Year 2	Year 3
<b>Revenue</b>	<b>51,585</b>	<b>53,494</b>	<b>55,749</b>	NA	3.7%	4.2%
COGS	27,697	28,429	29,200	NA	2.6%	2.7%
<b>Gross Profit</b>	<b>23,888</b>	<b>25,065</b>	<b>26,550</b>			
 <b>SG&amp;A</b>	 <b>5,877</b>	 <b>6,006</b>	 <b>6,144</b>	 NA	 2.2%	 2.3%
Other	1,764	1,931	2,026	NA	9.5%	4.9%
<b>EBITDA</b>	<b>16,247</b>	<b>17,128</b>	<b>18,380</b>	NA	5.4%	7.3%
 <b>Depreciation</b>	 2,960	 3,196	 3,452	 NA	 8.0%	 8.0%
<b>Earnings Before Interest and Taxes</b>	<b>13,287</b>	<b>13,932</b>	<b>14,928</b>	NA	4.9%	7.1%
 <b>Interest Expense</b>	 1,488	 2,580	 2,448	 NA	 73.4%	 (5.1%)
<b>Earnings Before Tax</b>	<b>11,799</b>	<b>11,352</b>	<b>12,480</b>	NA	(3.8%)	9.9%
 <b>Tax</b>	 3,155	 2,861	 3,012	 NA	 (9.3%)	 5.3%
<b>Net Income</b>	<b>8,644</b>	<b>8,491</b>	<b>9,468</b>	NA	(1.8%)	11.5%

### 3-rasm. Korxonalar faoliyatini gorizontal tahlili<sup>5</sup>.

Moliyaviy tahlil, yuqorida aytib o'tilganidek, boshqaruv, investitsiya va boshqa qarorlar to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida tashkilot faoliyatining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining asosiy ko'rsatkichlarini o'rganishdir. Moliyaviy tahlil kengroq tushunchalar tarkibiga kiradi, ya'nii kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va iqtisodiy tahlil. Moliyaviy tahlil tashkilotning aktivlari va majburiyatlari, uning to'lov qobiliyati, likvidligi, moliyaviy natijalari va moliyaviy barqarorligini tahlil qilish, aktivlar aylanmasi (tadbirkorlik faoliyati) tahlilini o'z ichiga oladi. Moliyaviy tahlil kompaniya faoliyatining muhim jihatlarini, masalan, bankrotlik ehtimolini olib beradi. Moliyaviy tahlil auditorlar, baholovchilar va boshqalar kabi ekspertlar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Tahlilchining asosiy vazifalaridan biri moliyaviy hisobotlarni keng tahlil qilishdir.

Tahlil natijasida hisoblangan ko'rsatkich ma'lumotlarini o'rganib chiqish orqali korxonaning moliyaviy holati to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish mumkin. Shunday qilib, sanoat korxonalarining moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlarni o'rganib chiqib, korxonaning quyidagi "og'riqli nuqtalari"ni aniqlash mumkin: tashkilotning iqtisodiy aktivlari va asosiy vositalar miqdorining kamayishi o'z aylanma aktivlari hajmini kamaytirish; asosiy vositalar hajmini qisqartirish va ulardan intensiv foydalanish orqali ma'naviy eskirishining oldini olish; joriy majburiyatlarni joriy aktivlar bilan yetarli miqdorda qoplay olmaslikning oldini olish; joriy likvidlik koeffitsientini ko'tarish; daromadlarning o'sish sur'atlarini oshirish

**Munozara.** "Tahlil" atamasi yunoncha tahlil so'zidan kelib chiqqan bo'lib, parchalanish, butunni qismlarga ajratish degan ma'noni anglatadi. U sintez atamasiga qarama-qarshi atamani ham anglatadi. Tahlil ma'lum bir butunni tarkibiy qismlarga bo'lish va har bir qismni o'zi uchun

<sup>5</sup> Vučičević D., "Theoretical aspects and basic settings of financial analysis", School of Business 2/2012,(2012),p.2.

va ma'lum bir butunning boshqa qismlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish orqali haqiqatni ilmiy tadqiq qilish va tushuntirish jarayonini nazarda tutadi[12].

A.P. Levchayev fikriga ko'ra, moliyaviy hisobotlarning tahlili – bu eng muhim jarayon bo'lib, unda korxonaning moliyaviy holatini baholash yo'nalishlari, oxirgi bir necha yillardagi ko'rsatkichlari hamda kompaniya faoliyatining natijalarini kelajakda korxonaning yanada yuqori ko'rsatkichlarga erishishida foydalanish jarayonlarini qamrab oladi[14].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moliyaviy resurslarni tadqiq qilish muammosi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan hal qilindi. Shunday qilib, I. A. Blank "moliyaviy resurslar" tushunchasini aniqlashga quyidagi yondashuvlarni aniqladi[11]:

1. "Kapital" nuqtai nazaridan.
2. "Kelgusi barcha pul tushumlari summasi"nuqtai nazaridan.
3. "Ma'lum bir sanada mavjud bo'lgan naqd pul miqdori"nuqtai nazaridan.
4. "Investitsiya resurslari"nuqtai nazaridan.
5. "Sof foya va amortizatsiya" nuqtai nazaridan.

Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma'lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni korxona qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va korxona rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo'lishi korxonani to'lovga qobiliyatligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag'lar yetishmasligiga olib keladi[5].

Moliyaviy tahlil haqida iqtisodchilar turlicha fikrlar bildirishgan M.Raximovning fikricha "Moliyaviy tahlil moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni ta'minlaydi"[3].

G. B. Polyakning fikriga ko'ra, moliyaviy resurslar korxona tomonidan amalga oshiriladigan takror ishlab chiqarish jarayonining moliyaviy natijasini miqdoriy jihatdan tavsiflash uchun mo'ljallangan va asosiy vositalarning yo'q qilinishini qoplash, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish uchun ajratilgan mablag'lardir[16].

Xorijlik olimlardan S.I.Krilovning fikricha "Moliyaviy tahlil - moliyaviy natijalar va tashkilotning moliyaviy holatini o'rGANISH bilan bog'liq iqtisodiy tahlil turidir"[13].

E.V.Astaxova va O.Y.Starovoytovalarning fikricha tashkilotning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini baholash jarayoni (masalan, balans yoki daromadlar to'g'risidagi hisobot). Moliyaviy hisobotlar moliyaviy ma'lumotlarni qayd etadi, odatda har xil ko'rsatkichlar yordamida baholanadi moliyaviy nisbatlar va usullar[8].

S. V. Barulinning nazariyasiga ko'ra, moliyaviy faoliyatni amalga oshirish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan va amalda ishlatilgan mablag'lar to'plami moliyaviy resurslar hisoblanadi[9].

Darhaqiqat, o'tgan biznes voqealarini tahlil qilish "biznesni boshqarishning oldingi qarorlarini baholash va kelajakda kompaniyani saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan biznes qarorlarini loyihalash uchun tegishli barcha ma'lumotlarni olish uchun hisoblab chiqilgan"<sup>6</sup>.

Iqtisod fanlari doktori professor M.Q.Pardayev tomonidan moliyaviy tahlilga quyidagicha ta'rif beriladi. «Moliyaviy tahlil – xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rGANISHGA bag'ishlangan tahlildir»[15].

"Moliyaviy tahlil, so'zning bugungi ma'nosida, o'tmishdagi va/yoki hozirgi moliyaviy natijalarni baholash orqali, kompaniyaning istiqbollarini baholash uchun asos sifatida, o'tmish va

<sup>6</sup> Ranković J.: "Financial Management of Enterprises", IV edition, Center Belgrade, (1989), p. 174



hozirgi davrning kombinatsiyasi hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning avtonom maqsadlari yo‘q, lekin ular tahlilchilar va uning natijalaridan foydalanuvchilarning manfaatlari bilan belgilanadi[2].

Korxona moliyaviy barqarorligi tahlili haqida so‘z borar ekan, iqtisodchi olim M.Q.Pardaev “Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatdan bir maromda uzlusiz ta’minlab turishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan ta’minlanish faqatgina moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish emas, balki uning juda ko‘p qirralari, tomonlari mavjud. Chunki xo‘jalik faoliyatining uzlusiz sodir bo‘lib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar yetarli emas. Bu resurslarning ta’minlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham yetarli miqdorda bo‘lishi lozim [1].

### **Xulosa.**

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, korxonalardagi moliyaviy resurslarni tahlil qilishda mavjud muammolarni hal qilish uchun va moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

**1)** Moliyaviy resurslar bo‘yicha yuqori hajmdagi xarajatlarni kamaytirish (ularni optimallashtirishni maksimal darajada oshirish). Bu tadbirlar foydaning pasayishini to‘xtatishga yordam berishi kerak. Xarajatlarni samarali nazorat qilish tizimini yaratish xarajatlarni kamaytirishning juda samarali usuli hisoblanadi.

**2)** Korxona aktivlaridan samarali foydalanish borasida moliyaviy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan ayrim turdagи xarajatlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish orqali xarajatlarni optimallashtirish. Bunda ishlab chiqarish jarayonidagi roliga qarab moliyaviy resurs zaxiralari konsentratsiyasini o‘zgartirish orqali faoliyat turg‘unligini oshirish kerak. Moliyaviy resurslar korxona faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilishini inobatga olib, ulardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqish.

**3)** Moliyaviy tahlil muvaffaqiyatlari va mazmunli bo‘lishi uchun, avvalo, moliyaviy hisobotlarni, ya’ni tahlil qilish uchun axborot bazasini tayyorlash kerak. Bu balans ma'lumotlaridan foydalanish qulayligini, ya’ni xarajatlar va daromadlarni hisob-kitob davrlariga taqsimlashning muntazamligi va pul o‘zgarishlarining ta’sirini hisobga olish darajasi kabi qo’llaniladigan balanslash tartib-qoidalarining yetarlilagini hisobga olishni nazarda tutadi. Keyinchalik daromadlar to‘g‘risidagi hisobotni birlashtirish va balans ma'lumotlarini tasniflash kerak.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pardaev M.Q. Molayaviy tahlil (ma'ruza matni). Samarqand 2007 y. -275 b.
2. Ranković J.: "Financial Management of Enterprises", IV edition, Center Belgrade, (1989), p. 174
3. Raximov M. Y. Iqtisodiyot subyektlari molayaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013.392 b.
4. Raximov M.Y. Molayaviy tahlil-2 (o'quv qo'llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.
5. Vahobov A.V., N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov. Molayaviy va boshqaruv tahlili / Darslik: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Toshkent moliya instituti. – 3- qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b.
6. Vučičević D., "Theoretical aspects and basic settings of financial analysis", School of Business 2/2012,(2012), p.2.
7. Алексеева А.И., Васильев Ю.В., Малеева А.В. и др. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М. «Финансы и статистика» 2006г. Стр-16.
8. Астахова Е.В., Старовойтова О.Я. Бухгалтерская отчетность как источник формирования финансовой устойчивости организации на примере ООО «Морской меридиан» // Азимут научных исследований: экономика и управление. 2017. Т. 6. № 3 (20). С. 320-324.
9. Барулин С. В. Финансы : учебник. / С. В. Барулин. – М.: КНОРУС, 2018. – 640 с
10. Басовский Л. Е., Лунева А. М., Басовский А. Л. "Экономический анализ". М. «ИНФРА-М»-2008г., стр-7 .
11. Бланк И.А. Управление финансовыми ресурсами / И.А. Бланк. М.: Издательство «Омега-Л», 2011. 768 с.
12. Гелета И.В., Дьяченко Е.И. Факторы финансовой устойчивости предприятия // Гуманитарные научные исследования, 2015. № 6. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://human.sciencedata.ru/2015/06/11517/> (дата обращения: 19.04.2017).
13. Крылов С. И., Финансовый анализ: учебное пособие / С. И. Крылов. — Екатеринбург :
14. Изд во Урал. ун та, 2016. — 160 с
15. Левчаев П.А. Финансовый менеджмент и налогообложение организаций: учебное пособие. Саранск: Мордовский гуманитарный институт, 2015.
16. Пардаев М.Қ. Иқтисодиё таҳлил назарияси. Сам. “Зарафшон”. 2001 йил. 183 бет.
17. Поляк Г. Б. Финансы, денежное обращение и кредит: учебник / под ред. Г.Б. Поляка. – М. : ЮНИТИ–ДАНА, 2009. – 639 с.